

MAMLAKATNI MAKROIQTISODIY BARQARORLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ-BYUDJET SIYOSATINING ROLI

Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0006-4388-0919

E-mail: lionev0006@mail.ru

Normirzayev Adham Zulfiqor o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo‘nalishi

4 - bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatni makroiqtisodiy barqarorlashtirish va rivojlantirishda soliq-byudjet siyosatining o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining iqtisodiy o‘shishga ta’siri, soliq tushumlari barqarorligini ta’minlash mexanizmlari hamda fiskal siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar, soliq tizimini raqamlashtirish, davlat xarajatlarini natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv asosida tashkil etish masalalari yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, samarali soliq-byudjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: fiskal siyosat, davlat byudjeti, soliq tizimi, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish, byudjet taqchilligi, raqamlashtirish, soliq ma’muriyatchiligi.

Аннотация

В данной статье исследована роль налогово-бюджетной политики в макроэкономической стабилизации и развитии страны. В ходе исследования проанализировано влияние доходов и расходов государственного бюджета на экономический рост, механизмы обеспечения устойчивости налоговых поступлений, а также социально-экономическая эффективность фискальной политики. Особое внимание уделено проводимым в Узбекистане фискальным реформам, цифровизации налоговой системы и внедрению механизмов результативного управления государственными расходами. Результаты исследования показывают, что эффективная налогово-бюджетная политика является важным фактором обеспечения макроэкономической стабильности, стимулирования экономического роста и повышения уровня благосостояния населения.

Ключевые слова: фискальная политика, государственный бюджет, налоговая система, макроэкономическая стабильность, экономический рост, бюджетный дефицит, цифровизация, налоговое администрирование.

Abstract

This article examines the role of fiscal policy in ensuring macroeconomic stability and promoting economic development. The study analyzes the impact of state budget revenues and expenditures on economic growth, mechanisms for ensuring the stability of tax revenues, and the socio-economic effectiveness of fiscal policy. Particular attention is paid to fiscal reforms implemented in Uzbekistan, digitalization of the tax system, and the introduction of performance-based public expenditure management. The results indicate that an effective fiscal policy is an important factor in maintaining macroeconomic stability, stimulating economic growth, and improving public welfare.

Keywords: fiscal policy, state budget, tax system, macroeconomic stability, economic growth, budget deficit, digitalization, tax administration.

KIRISH

Globalashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatni makroiqtisodiy barqarorlashtirish, inflyatsiyani nazorat qilish, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish hamda aholi farovonligini oshirishda soliq-byudjet siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq-byudjet siyosati davlatning iqtisodiy jarayonlarga faol ta‘sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun davlat tomonidan olib borilayotgan fiskal siyosat iqtisodiyotdagi umumiy talab va taklif muvozanatini saqlash, investitsion faollikni oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun samarali soliq-byudjet siyosati iqtisodiy islohotlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda fiskal siyosatni modernizatsiya qilish, byudjet tizimini takomillashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimini joriy etish, fiskal shaffoflikni oshirish, davlat xaridlarini raqamlashtirish va soliq tizimini soddalashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda fiskal siyosat markaziy o‘rin egallamoqda. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag‘larning yuqori ulushi davlat siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. 2024 yil yakunlariga ko‘ra, davlat byudjeti xarajatlarining katta qismi ta‘lim, sog‘liqni saqlash, pensiya tizimi va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Bu esa inson kapitalini rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilayotgan davlat investitsiyalari transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat byudjeti xarajatlarini samarali boshqarish maqsadida O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu tizim har bir vazirlik va idora faoliyatining samaradorligini aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi

ADABIYOTLAR SHARHI

Byudjet xarajatlari samaradorligini baholashning nazariy asoslari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasida qo‘yilgan. Iqtisodiy nazariyada klassik va neoklassiklar davlat xarajatlarining iqtisodiy o‘shiga ta‘sirini tahlil qilishgan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar uning ijtimoiy va institutsional soha ta‘sirini ham hisobga oladi. Xususan, Musgrave davlat moliyasining funksiyalarini uchta sohaga ajratdi: resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash. U davlat xarajatlarining samaradorligi ularning maqsadli ishlatilishi bilan bevosita bog‘liqligini ta‘kidlaydi.[1]

Xolbutaev B.S. o‘z tadqiqotida davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy ehtiyojlar va nazorat tizimlariga samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish zarurligiga e‘tibor qaratadi. U byudjet xarajatlarini miqdor jihatdan emas, aksincha sifat jihatidan tahlil qilish muhimligini ta‘kidlaydi [2].

Musgrave R.A. va. Musgrave P.B o‘zlarining "Davlat moliyasi: nazariya va amaliyot" asarida davlat xarajatlarining ijtimoiy adolatni ta‘minlashdagi rolining nazariy asoslari ochib berilgan. Ushbu olimlar davlat xarajatlarining samaradorligi va ijtimoiy funksiyalari mezonlarini tahlil qilishgan. Mualliflar davlat byudjetidan bozordagi kamchiliklarni tuzatish va ijtimoiy tenglikka erishish uchun foydalanish mumkinligini ta‘kidlashgan.[3]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi alohida ijtimoiy xarajatlar mamlakat bo‘ylab qanday taqsimlanganligi, qanday ustuvorliklar va moliyaviy mexanizmlardan foydalanilganligi haqida aniq statistik ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan hisobotlar beradi. [4].

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan tayyorlangan tahliliy materiallarda davlat xarajatlarini rejalashtirish va monitoring qilish uchun natijalarga asoslangan tizimni joriy etish zarurligi ta‘kidlangan. Xususan, Jahon bankining "Davlat xarajatlari sharhi" hisobotlarida davlat xarajatlari samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi taqdim etilgan.[5][6]

Aksincha, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) shaffoflik, fuqarolar mustaqilligi va tizimni mustaqil tekshirishning muhimligini, shuningdek, ijtimoiy investitsiyalarning samaradorligini ko‘rsatuvchi tahlil o‘tkazdi. Xususan, "OECD mamlakatlarida samaradorlikni byudjetlashtirish" hisobotida ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasida samaradorlikni byudjetlashtirish usullari ko‘rib chiqilgan.[7]

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda nazariy tushunchalar va amaliy tajribaga tayanib, O‘zbekistonda davlat xarajatlarining samaradorligi tahlil qilindi. Tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, identifikatsiya, baholash va taqqoslash kabi turli usullar qo‘llanildi.

Ushbu usullar bizga byudjet xarajatlarining samaradorligini baholash uchun nazariy asos yaratish va ularning haqiqiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi indikatorlari asosida korrelyatsion va regressiya tahlili amalga oshirildi

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida jami davlat xarajatlari 310 926,2 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ushbu xarajatlarning 152 347,6 mlrd so‘mi yoki qariyb 49 foizi ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu davlat siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilgan xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy xarajatlar tarkibida:

- ijtimoiy soha va aholini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari - 134 666,6 mlrd so‘m;
- pensiya jamg‘armasiga transfertlar - 16 270,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek:

- iqtisodiyot xarajatlari uchun 38 417,0 mlrd so‘m;
- markazlashgan investitsiya loyihalari va infratuzilma rivoji uchun 28 482,2 mlrd so‘m;
- davlat boshqaruvi organlari uchun 16 306,3 mlrd so‘m mablag‘ sarflandi.

Mazkur ko‘rsatkichlar davlat xarajatlarining asosiy qismi inson kapitalini rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi.

2024-yil davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi indikatorlari asosida korrelyatsion va regressiya tahlili amalga oshirildi (1-jadval). Mazkur tahlilning asosiy maqsadi davlat byudjeti xarajatlari ulushi bilan iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlashdan iborat. Tahlilda mustaqil o‘zgaruvchi sifatida davlat xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi, bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida esa natijadorlik koeffitsiyenti qabul qilindi

1-jadval

Davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi indikatorlari¹ 2024-yil

Sohalar	Xarajatlar ulushi (YAIMga nisbatan, foizda)	Natijadorlik koeffitsiyenti
Infratuzilma	4,5	1,45
Ta’lim	6,2	1,15
Sog‘liqni saqlash	3,8	1,08
Energetika (Subsidiyalar)	0,7	0,95

2024-yil davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi indikatorlari asosida korrelyatsion va regressiya tahlili amalga oshirildi. Tahlilda davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushi mustaqil o‘zgaruvchi (X), natijadorlik koeffitsiyenti esa bog‘liq o‘zgaruvchi (Y) sifatida olindi.

¹ <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlari-2024>

2-jadval

Statistik ko'rsatkichlar¹

Sohalar	X	Y	X ²	Y ²	XY
Infratuzilma	4,5	1,45	20,25	2,1025	6,525
Ta'lim	6,2	1,15	38,44	1,3225	7,13
Sog'liqni saqlash	3,8	1,08	14,44	1,1664	4,104
Energetika subsidiyalari	0,7	0,95	0,49	0,9025	0,665
Jami	15,2	4,63	73,62	5,4939	18,424

Korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblandi²:

$$r = \frac{n\sum XY - (\sum X)(\sum Y)}{\sqrt{[n\sum X^2 - (\sum X)^2][n\sum Y^2 - (\sum Y)^2]}}$$

Belgilarning ma'nosi:

r - korrelyatsiya koeffitsiyenti;

n - kuzatuvlar soni;

X - birinchi o'zgaruvchi qiymatlari;

Y - ikkinchi o'zgaruvchi qiymatlari;

$\sum X$ - X qiymatlarining yig'indisi;

$\sum Y$ - Y qiymatlarining yig'indisi;

$\sum XY$ - X va Y qiymatlari ko'paytmalarining yig'indisi;


$\sum X^2$ - X qiymatlari kvadratlari yig'indisi;

$\sum Y^2$ - Y qiymatlari kvadratlari yig'indisi.

Natijada quyidagi yechimga ega bo'ldik;

$$r = \frac{4(18.424) - (15.2)(4.63)}{\sqrt{[4(73.62) - (15.2)^2][4(5.4939) - (4.63)^2]}} \approx 0.63$$

Olingan r=0,63 natija davlat xarajatlari ulushi bilan iqtisodiy natijadorlik o'rtasida o'rtacha musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu davlat xarajatlari oshgani sari iqtisodiy samaradorlik ham ma'lum darajada ortishini anglatadi.



1-rasm: Y=a+bX chizmasi³

¹ Mualliflar tomonidan ishlab chiqildi

² Gujarati D. Basic Econometrics. - New York: McGraw-Hill, 2021


³ Gujarati D. Basic Econometrics. - New York: McGraw-Hill, 2021

$$b = \frac{n\sum XY - (\sum X)(\sum Y)}{n\sum X^2 - (\sum X)^2}$$

$$a = \bar{Y} - b\bar{X}$$

ushbu formulalar orqali regressiya koeffitsiyentlari hisoblab chiqiladi. Hisob-kitob natijalari:

$$b \approx 0,067 \quad a \approx 0,903 \quad Y=0.903+0.067X \text{ funksiya hosil bo'ldi. (2-rasm)}$$



2-rasm $Y=0.903+0.067X$ funksiya chizmasi ¹

Mazkur regressiya tenglamasi davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushi bilan iqtisodiy natijadorlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Hisob-kitob natijalariga ko'ra, davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushi 1 foizga oshganda natijadorlik koeffitsiyenti o'rtacha 0,067 birlikka ortishi aniqlangan. Bu esa davlat tomonidan iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga yo'naltirilayotgan mablag'lar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Mazkur natija davlat xarajatlari iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi muhim moliyaviy instrument ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlil davomida infratuzilma xarajatlari eng yuqori natijadorlik ko'rsatkichiga ega ekanligi kuzatildi. Infratuzilma sohasiga yo'naltirilgan xarajatlarning samaradorlik koeffitsiyenti 1,45 ni tashkil qilgani ushbu xarajatlar iqtisodiyotda yuqori multiplikativ ta'sir hosil qilishini bildiradi. Xususan, transport va logistika tizimining rivojlanishi yuk tashish xarajatlarini kamaytiradi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada ishlab chiqarish hajmi ortib, iqtisodiy faollikning kengayishiga xizmat qiladi. Shu sababli infratuzilmaga yo'naltirilgan davlat xarajatlari uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ta'lim sohasi xarajatlari ham iqtisodiy

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi

rivojlanish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yoʻnalishdagi natijadorlik koeffitsiyenti 1,15 ni tashkil etgani inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan xarajatlar iqtisodiyotga ijobiy taʼsir koʻrsatishini anglatadi. Taʼlim tizimiga ajratilgan mablagʻlar malakali kadrlar tayyorlash, mehnat unumdorligini oshirish va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq taʼlim xarajatlarning iqtisodiy samarasi qisqa muddatda emas, balki uzoq muddat davomida namoyon boʻlishi bilan boshqa xarajatlardan farq qiladi.

Sogʻliqni saqlash xarajatlari boʻyicha natijadorlik koeffitsiyenti 1,08 ni tashkil qilgan. Ushbu koʻrsatkich sogʻliqni saqlash tizimiga yoʻnaltirilgan mablagʻlar aholining mehnatga layoqatlilik darajasini oshirish, kasalliklar sonini kamaytirish hamda mehnat unumdorligini yaxshilash orqali iqtisodiyotga ijobiy taʼsir koʻrsatishini bildiradi. Sogʻlom aholi iqtisodiy faoliyatning muhim omillaridan biri boʻlib, sogʻliqni saqlash tizimining rivojlanganligi mamlakatning ijtimoiy barqarorligini taʼminlashda ham katta ahamiyatga ega.

Energetika subsidiyalari boʻyicha natijadorlik koeffitsiyentining 0,95 darajasida shakllanishi esa mazkur xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi boshqa yoʻnalishlarga nisbatan pastroq ekanligini koʻrsatadi. Bu holat subsidiyalarning ayrim hollarda resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelishi yoki xarajatlarning iqtisodiyotga qaytimi yetarli darajada yuqori emasligi bilan izohlanadi. Shu sababli energetika subsidiyalarini bosqichma-bosqich optimallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda bozor mexanizmlaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. Korrelyatsion tahlil natijasida aniqlangan oʻrtacha musbat bogʻliqlik davlat xarajatlari va iqtisodiy samaradorlik oʻrtasida uzviy aloqa mavjudligini koʻrsatadi. Biroq davlat xarajatlarning hajmi emas, balki ularning qaysi yoʻnalishlarga va qay darajada samarali taqsimlanishi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy oʻsishga yuqori taʼsir koʻrsatadigan infratuzilma, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohasiga ustuvor ravishda mablagʻ yoʻnaltirish davlat byudjeti siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, soliq-byudjet siyosati mamlakatni makroiqtisodiy barqarorlashtirish va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlatning iqtisodiyotdagi roli tobora ortib borayotganligi sababli fiskal siyosat orqali iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish, aholi bandligini taʼminlash hamda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy xavf-xatarlar va tashqi bozorlardagi beqarorlik sharoitida fiskal siyosat iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishning asosiy mexanizmlaridan biri boʻlib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida Oʻzbekiston Respublikasida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning tarkibi, soliq tushumlari dinamikasi hamda davlat xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi statistik maʼlumotlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar davlat xarajatlarning katta qismi ijtimoiy sohalarga yoʻnaltirilayotganini koʻrsatadi. Jumladan, 2024-yilda davlat xarajatlarning qariyb yarmi taʼlim, sogʻliqni saqlash,

pensiya va aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga sarflanganligi mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, infratuzilmaga yoʻnaltirilayotgan investitsiyalar iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirish, hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalariga asosan, Oʻzbekistonda soliq-byudjet siyosatining samaradorligini oshirish boʻyicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Soliq tizimini takomillashtirish - soliq maʼmuriyatchiligini raqamlashtirish, qoʻshilgan qiymat soligʻi va daromad soligʻi boʻyicha maʼmuriy yukni kamaytirish, shuningdek, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan monitoring mexanizmlarini joriy etish.

2. Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish - byudjet mablagʻlarini sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, natijaga asoslangan byudjetlashtirish usulini keng joriy qilish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarida byudjet risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish.

3. Ijtimoiy xarajatlarning manzilliligini taʼminlash - aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashda “yagona oyna” tamoyili asosida manzilli yordam tizimini rivojlantirish, subsidiyalar va imtiyozlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yetib borishini nazorat qiluvchi raqamli platformalarni joriy etish.

4. Infratuzilma investitsiyalarining uzoq muddatli iqtisodiy samarasini baholash - har bir yirik infratuzilma loyihasining byudjetga qaytish muddati va ish oʻrinlari yaratishga taʼsirini hisoblaydigan maxsus metodologiyani ishlab chiqish va joriy qilish.

5. Fiskal barqarorlikni mustahkamlash - davlat byudjeti daromadlarini diversifikatsiya qilish, soliq bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy zarbalarga qarshi “fiskal xavfsizlik yostigʻi” (byudjet zaxira fondi) miqdorini oshirish va davlat qarzini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.

6. Soliq-byudjet siyosatining ochiqligi va prognoz qilinishini oshirish - byudjet jarayonining barcha bosqichlarida jamoatchilik ishtirokini taʼminlash, oʻrta muddatli byudjet ramkasini takomillashtirish va soliq oʻzgarishlari toʻgʻrisida tadbirkorlarni oldindan xabardor qilish mexanizmlarini joriy etish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali Oʻzbekistonda soliq-byudjet siyosatining barqarorligi, samaradorligi va ijtimoiy yoʻnaltirilganligini yanada oshirish, shu bilan birga uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishni taʼminlash mumkin boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. - Toshkent, 2022-2025 yil.

2. Oʻzbekiston Respublikasi “2026-2028-yillarga moʻljallangan Fiskal strategiya toʻgʻrisida”gi Qarori https://api.mf.uz/media/filestore/fiskal_strategiya_2026-2028_4hxRGwi.pdf

3. Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi <https://lex.uz/docs/-4674902>

4. Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi <https://lex.uz/docs/-2304138?otherlang=1>

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari. Davlat byudjeti ijrosi hisobotlari, 2022-2025 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhlari va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, 2024-2025 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. - Toshkent, 2025.
8. McGraw-Hill “The theory of public finance: a study in public economy.” 1959, на английском языке[1]
9. Xolbo‘tayev B.S. Davlat byudjeti xarajatlarining natijadorligini baholashda zamonaviy yondashuvlar // Iqtisodiyot va moliya ilmiy-amaliy jurnali. - 2020. - No4. - B. 45-51.5.[2]
10. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. - New York: McGraw-Hill Book Company, 1989. - 627 p.[3]
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2023-2024 yillar uchun Davlat byudjeti ijrosi va xarajatlarining asosiy yo‘nalishlari // Moliya.uz rasmiy veb-sayti. - URL: <https://www.moliya.uz> (murojaat qilingan sana: 16.04.2026).[4]
12. World Bank. Public Expenditure Review: Uzbekistan. - Washington, D.C.: World Bank Publications, 2023. - URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/public-expenditure-review> (murojaat qilingan sana: 16.04.2026). [5]
13. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Transparency Evaluation: Uzbekistan. - Washington, D.C.: IMF, 2022. - URL: <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2022/03/22/Uzbekistan-Fiscal-Transparency-Evaluation-515741> (murojaat qilingan sana: 16.04.2026).[6]
14. 9. OECD. Performance Budgeting in OECD Countries. - Paris: OECD Publishing, 2019. - 220 p. - URL: <https://doi.org/10.1787/9789264307957-en> (murojaat qilingan sana: 16.04.2026).[7]



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**